

### XIII. DEMOGRAFIYA

#### Doimiy aholi soni

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-oktabr holatiga **4 275,3** ming kishini tashkil etib, 2024-yil boshidan **66,8** ming kishiga ya'ni **1,6 %** ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni **1 563,7** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,6 %**), qishloq aholisi soni **2 711,6** ming kishini (**63,4 %**) tashkil etdi.

#### E'tibor bering: 2024-yil yanvar-sentabr oylarida

- Aholi soni **66,8 ming** kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **83,1 ming** nafarni tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **14,3 ming** nafarni tashkil etdi.
- Nikohlar soni **20,5 ming** nafarni tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **3,5 ming** nafarni tashkil etdi

#### 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida

Yil boshida  
Doimiy aholi soni  
**4 208 509 kishi**  
(2024-yil 1-yanvar holatiga)



**83,1** ming  
bola

Tug'ilganlar soni



**14,3** ming  
kishi

O'lganlar soni



**10,8** ming  
kishi

Ko'chib kelganlar  
soni



**12,8** ming  
kishi

Ko'chib ketganlar  
soni

Doimiy aholi soni  
**4 275 258 kishi**  
(2024-yilning 1-oktabr holatiga)

**Samarqand viloyati bo'yicha doimiy aholi soni<sup>1)</sup>**  
(2024-yilning 1-oktabr holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>Shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>4 275,3</b>	<b>1 563,7</b>	<b>2 711,6</b>
Samarqand sh.	593,4	593,4	-
Kattaqo'rg'on sh.	95,6	95,6	-
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	176,2	67,6	108,6
Bulung'ur	205,6	45,3	160,3
Jomboy	192,9	42,2	150,7
Ishtixon	280,6	75,1	205,5
Kattaqo'rg'on	298,3	55,7	242,6
Qo'shrabot	143,8	13,3	130,5
Narpay	230,5	67,5	163,0
Payariq	278,4	77,2	201,2
Pastdarg'om	389,7	99,2	290,5
Paxtachi	154,0	29,5	124,5
Samarqand	277,3	17,2	260,1
Nurobod	164,9	18,4	146,5
Urgut	569,1	238,8	330,3
Toyloq	225,0	27,7	197,3

<sup>1)</sup>dastlabki ma'lumot

**Samarqand viloyati bo'yicha doimiy aholi soni**  
(2024-yilning 1-oktabr holatiga ming kishi)

	2023-y.	2024-y.	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>4 185,6</b>	<b>4 275,3</b>	<b>102,1</b>
Samarqand sh.	582,4	593,4	101,9
Kattaqo'rg'on sh.	94,6	95,6	101,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	172,2	176,2	102,3
Bulung'ur	200,9	205,6	102,3
Jomboy	188,4	192,9	102,4
Ishtixon	274,3	280,6	102,3
Kattaqo'rg'on	292,2	298,3	102,1
Qo'shrabot	141,1	143,8	101,9
Narpay	226,3	230,5	101,9
Payariq	271,7	278,4	102,5
Pastdarg'om	381,0	389,7	102,3
Paxtachi	151,8	154,0	101,4
Samarqand	271,6	277,3	102,1
Nurobod	161,7	164,9	102,0
Urgut	555,6	569,1	102,4
Toyloq	219,8	225,0	102,4


**Yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy harakati**

	kishi			har 1 000 kishiga nisbatan promille	
	2023-y.	2024-y. <sup>1)</sup>	o'lish, kamayish	2023-y.	2024-y. <sup>2)</sup>
Tug'ilganlar	85 400	83 141	-2 259	27,5	26,2
O'lganlar	14 578	14 353	-225	4,7	4,5
Tabiiy o'sish	70 822	68 788	-2 034	22,8	21,7
Nikohlar	20 751	20 499	-252	6,7	6,5
Ajralishlar	3 474	3 475	1	1,1	1,1

**Tug'ilish darajasi.** 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni **83 141** bolani tashkil qildi va 2023-yilning shu davriga (**85 400 bola**) nisbatan **2 259** bolaga yoki **3,7 foizga** kamaydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda **26,2 promilleni** tashkil qildi va 2023-yilning shu davrida ham (**27,5 promille**) ni tashkil qildi.

**Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari**

(yanvar-sentabr oylarida) (1 000 aholi soniga nisbatan promille)



<sup>1)</sup> dastlabki ma'lumot  
<sup>2)</sup> dastlabki ma'lumot


Tugʻilish darajasining koʻpayishi viloyatning ayrim hududlarida qayd etildi. Bu koʻrsatkichning yuqori darajasi Ishtixon tumanida **23,2** dan, **24,0** **promillega** koʻpayishi kuzatilgan.

**Tugʻilish.** 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **83,1** mingta bola tugʻilganligi qayd etilgan boʻlib (bu yerda va keyinchalik tugʻilganlarga faqat tirik tugʻilganlar inobatga olingan) mos ravishda **1 000** aholiga nisbatan tugʻilish koeffitsienti **26,2** promilleni tashkil etdi hamda 2023-yilning mos davrida ham **27,5** promille boʻlganligi kuzatildi.

### Maʼlumot uchun


Tirik tugʻilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud boʻlsa ham bola tirik tugʻilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati **22 hafta** va undan ortiq, bolaning boʻyi **25 sm** va undan ortiq, vazni **500 gramm** va undan ortiq boʻlishi lozim.

**Tumanlar kesimida tugʻilganlar soni va koeffitsienti**  
(2024-yilning yanvar-sentabr oylarida)




**O‘lim darajasi.** 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida o‘lganlar soni **14 353** kishini tashkil qildi va 2023-yilning shu davriga (**14 578 kishi**) nisbatan **225** kishiga yoki **1,6** foizga ko‘maydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti **4,5 promilleni** tashkil qildi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida **4,7 promille**).

**2024-yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**  
(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



**O‘lim koeffitsientlari**




O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Bulung‘ur tumanida (**4,1 dan 4,7 promillega**), Narpay tumanida (**4,2 dan 4,6 promillega**), Nurobod tumanida (**3,9 dan 4,3 promillega**), Oqdaryo tumanida (**4,3 dan 4,6 promillega**) hamda Toyloq tumanida (**3,9 dan 4,2 promillega**) ko‘payishi kuzatilgan.

**Nikoh.** 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYo organlari tomonidan **20,5** ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti **6,5 promilleni** tashkil etdi.




**Shahar va tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti**  
(2024-yilning yanvar-sentabr oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)



**Nikohdan ajralishlar.** 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYo organlari tomonidan **3,5** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti **1,1 promilleni** tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti**  
(2024-yilning yanvar-sentabr oylari holatiga)



**Nikohlar va ajralishlar.** 2024-yilning yanvar-sentabr oylari FHDYo organlarida **20 499** ta nikohlar va **3 475** ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan **6,5 promille** nikoh (2023-yilning tegishli davrida **6,7 promille**) va **1,1 promille** ajralishlar (2023-yilning tegishli davrida **1,1 promille**) to'g'ri kelgan.

**Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni**  
(yanvar-sentabr oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2023-y.</i>	<i>2024-y.<sup>2)</sup></i>	<i>2023-y.</i>	<i>2024-y.<sup>2)</sup></i>
Samarqand viloyati	<b>20 751</b>	<b>20 499</b>	<b>3 474</b>	<b>3 475</b>
Samarqand sh.	2 675	2 628	667	649
Kattaqo'rg'on sh.	460	456	117	113
tumanlar:				
Oqdaryo	864	823	112	174
Bulung'ur	1 063	1 010	144	175
Jomboy	934	879	167	141
Ishtixon	1 290	1 327	182	182
Kattaqo'rg'on	1 496	1 510	230	224
Qo'shrabot	696	717	86	76
Narpay	1 044	1 108	192	207
Payariq	1 519	1 480	234	245
Pastdarg'om	1 844	1 919	356	318
Paxtachi	790	782	160	167
Samarqand	1 400	1 341	292	254
Nurobod	686	710	100	71
Urgut	2 847	2 665	269	313
Toyloq	1 143	1 144	166	166

**Migratsiya<sup>1</sup> (Ichki va tashqi).** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni **10 800** kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa **12 839** kishini tashkil qilgan.

## Aholi migratsiyasi (kishi)


	2023-yilning yanvar-sentabr oylarida	2024-yilning yanvar-sentabr oylarida
Ko'chib kelganlar	8 653	10 800
Ko'chib ketganlar	12 066	12 839
Migratsiya saldosi	-3 413	-2 039

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida migratsiya qoldig'i minus **2 039** kishiga (2023-yilning shu davrida minus **3 413** kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Urgut (**minus 631**), Paxtachi (**minus 593**) va Kattaqo'rg'on (**minus 408**) tumanlarida kuzatilgan.


## yanvar-sentabr oylarida

soni, *ming kishi*

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



<sup>1</sup> Shahar va tumanlar hamda hududlararo ichki migratsiyani qo'shgan holda

<sup>2</sup> dastlabki ma'lumot



## Samarqand shahridagi demografik holat



Samarqand shahrining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-oktabr holatiga **593,4** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **8,2** ming kishiga yoki **1,4 %** ga o‘sgan.

### Samarqand shahri aholisining tabiiy harakati

(1 000 aholiga nisbatan promille)

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida	2024-yilning yanvar-sentabr oylarida
<b>Tug‘ilish</b>	
10,1	9,6

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **9,6** ming bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan **21,8 promilleni** tashkil etdi (2023-yilning mos davrida **23,3 promille** bo‘lgan).

FXDYo organlarida 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida **2 628** ta nikoh va **649** nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti **6,0 promilleni** tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **0,7 promillega** kamaygan (2023-yilning mos davrida **6,7 promille** bo‘lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan **1,5 promilleni** tashkil etib, 2023-yilning mos davrida **1,5 promille** bo‘lgan.

### Samarqand shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-sentabr holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

